XALQ DEPUTATLAR JIZZAX VILOYATI KENGASHINING QARORI

2024 - yil 14 - fevral VI-49-32-3-0-K/24 Jizzax viloyati hokimligi

Jizzax viloyatida ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflari)ni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 24-maydagi PQ-257-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi O‘RQ-784-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi Osiyo Taraqqiyot banki ishtirokida “Jizzax shahrida kanalizatsiya tizimini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3885-sonli qarori, 2018-yil 4-maydagi “Jizzax viloyati aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlashni yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3695-sonli qarori hamda 2023-yil 2-maydagi “2023-2025-yillarda Jizzax viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli qaroriga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi, “Jizzax suv ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyati

(M.T.Yusupov)ning viloyatdagi suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) belgilash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Jizzax viloyatida xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan ma’qullangan ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (A.Binoqulov), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (G‘.Qurbonov), “Jizzax” viloyati teleradiokompaniyasi (E.Shermonov), “Jizzax ovozi” va “Jizzax haqiqati” gazetalari birlashgan tahririyati (B.Nazarov)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **E.Saliyev**

Xalq deputatlari Jizzax viloyat
Kengashining
2024-yil 14-fevraldagi
VI-49-32-3-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyatida taklif etilayotgan ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflari)

Xizmat turi	**Iste’molchilar**	**O‘lchov birligi**	**Amaldagi narx** (QQSsiz so‘mda)	**Taklif etilayotgan narx** (QQSsiz so‘mda)
Ichimlik suvi	Aholi uchun	1 m3	2 500	4 000
	Byudjet tashkilotlari uchun	1 m3	3 500	6 000
	Ulgurji iste’molchilar uchun	1 m3	3 500	6 000
Oqova suv	Aholi uchun	1 m3	1 000	1 700
	Byudjet tashkilotlari uchun	1 m3	1 500	2 500
	Ulgurji iste’molchilar uchun	1 m3	1 500	2 500